

## MILLATNING MAVJUDLIGINI BELGILOVCHI MEZON

*O‘z tilini unutgan xalqning  
Bog‘larida o‘sgan gullarni  
Chirmab uxlar zaharli ilon...*

*(Xurshid Davron)*

Yer yuzida istalgan millatning mavjudligi, barqarorligi, yashovchanligini ko‘rsatib turuvchi irqiy, ma‘naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy mezonlar borki, ularning ichida, eng asosiysi, milliy til hisoblanadi. Zero, milliy til (ona tili)ning ravnaqi—o‘sha tilda fikrlovchi, so‘zlovchi xalqning gullab yashnashi; millatning o‘zigagina xos tilga e‘tiborsizlik, hurmatsizlik—uning yemirilishi, evrilishi. Bu evrilish esa butun boshli xalq, millatning tanazzuldir.

Rivoyat qilishlaricha, bir filchani tug‘ilganidanoq qoziqdagi uzun zanjirga bog‘lab qo‘yibdilar. Filcha yigirma yil shu qoziq atrofida aylanib hayot kechiribdi, kattakon filga aylanibdi. Uni ozod etishibdi. Fil garchi zanjirband bo‘lmasa-da, yana yigirma yil o‘sha qoziq atrofida aylangan ekan... Til borasida mustabidlik zanjirlarini uzganligimizga o‘ttiz yil to‘ldi. Bugun biz qalban, ma‘nan, ruhan, siyratu suratan o‘zbek degan nomga munosib bo‘lib yashashga to‘la haqli ekanligimizga ishonch hosil qildik. Fidoyi yurtdoshlarimizning ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy sohalarning turli jabhalarida yutuqlarga erishayotganliklari, jahonning rivojlangan mamlakatlariga qarab qad rostlayotganliklari, o‘zlarini, o‘zliklarini isbotlab O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ini baland ko‘tarayotganliklari o‘zini *o‘zbekman* deb hisoblagan har bir kishining diliga cheksiz quvonch, faxr-iftixor tuyg‘usini baxsh etadi. Bu yaxshi, albatta.

Biroq biz ajdodlarning, zamondoshlarimizning yutuqlaridan faxrlanib, ko‘krak kerishga bir qadar odatlanib qolmadikmikan?! Bugun o‘zimiz faxrga arzigulik ishlar qilyapmizmi? Hech bo‘lmasa, ajdodlar qadrlab kelgan an‘analarni, insoniylikning hech bir kitoblarda yozilmagan jihatlarini, yer yuzida o‘zbek xalqi paydo bo‘lgandan beri “uning borligini ko‘rsatib turuvchi oynai jahoni—tili, adabiyoti” sofligini saqlab qolishga ozgina bo‘lsa-da, hissa qo‘shyapmizmi?

“Birovga yaxshilik qilish qo‘lingdan kelmasa, unga yomonlik qilmaslikning o‘zi ham savobdir”, deyiladi “Hadisi sharif”lardan birida. Demak, tilni rivojlantirishga kuchimiz yetmasa, uni g‘orat qilmaslikning o‘zi ham savob ekan-da. Aytaylik, siz tadbirkorsiz. Oilangiz, farzandlaringiz rizqini yig‘ib terganingizni sarflab barpo etgan kichik do‘konchangiz yoki shinamgina oshxonangiz, sataroshxona yoki ishlab chiqarishingiz, xullas, aholiga xizmat ko‘rsatayotgan muassasangiz ortidan topyapsiz. Bir necha kishini, hech bo‘lmasa, o‘zingiz va yaqinlaringizni ish bilan ta‘minlab turibsiz. Tashakkur, sizga! Boringizga shukur!

Shu o‘rinda sizga ozgina, yo‘q, kattagina iddaomiz bor. Nega deysizmi?! Chunki siz ona tilimizning borligini, borlig‘ini saqlab qolishimizga g‘ov bo‘lyapsiz. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodga sizning va siz kabi tadbirkorlarning reklama tarzidagi “ishxonangiz” nomi salbiy ta‘sir o‘tkazyapti. (Afsuski, yuqoridagi mutasaddilar ham siz keltirayotgan moddiy foydani jamiyatning milliy ruhiga yetkazayotgan ma‘naviy zararingizdan ustun qo‘yishyapti.)

Shu o‘rinda bir rivoyatni keltirib o‘tmoqni joiz deb bildik.

“O‘rmonda bolta paydo bo‘lib daraxtlarni kesa boshlabdi. O‘rmon ahli—daraxtlar unga chora topolmay donishmand Eman huzuriga boribdilar va bo‘layotgan voqeani so‘zlab beribdilar.

– Bolta deganlarning nimadan ishlangan? – so‘rabdi donishmand Eman.

– Bolta temirdan ishlangan, –javob qilishibdi yig‘ilganlar.

–Dastasi-chi? U ham temirdan ishlanganmi? – tashvishlanib so‘rabdi kekxa Eman.

–Yo‘q, dastasi temirdan emas, yog‘ochdan, – jo‘r bo‘lishibdi daraxtlar.

–Ha, attang, attang-a! Dastasi o‘zimizdan ekan, endi boltani to‘xtatishning hech qanday iloji yo‘q, – degan ekan donishmand Eman.”

Ha, siz qo‘ygan nomlarning ba‘zilarini sanab o‘tamiz: “*Pet-Line*”, “*Energo Radikal*”, “*Galeon Plyus*”, “*Rotor*”, “*Almaz*”, “*Alligator Plyus*”, “*Evviva Lusso*”, “*Asilis Best*”, “*Diamond-Art*”, “*Grocery Paradise*”, “*East Explore*”, “*Emir Trayel*”, “*Shturiy*”, “*Area Info*”, “*Juventus-Turin*”, “*Azia Global Team*”, “*Authentic Travel*”, “*New Leo Den*”, “*Anetto*”

*Plyus*”, “*New Star Spring*”, “*Injiniring Klimat Kontrol*”, “*Kavsar Plaza*”, “*Ekspress Axborot Servis*””, “*Media Music Star*”, “*Gold Star Konsalting*”, “*Atlantic Technics*”, “*Ikea*”...<sup>1</sup>

Sanab o‘tganlarimiz Buxoro hududida faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar, mas’uliyati cheklangan jamiyat va h.larning peshtoqiga ilib qo‘yilgan nomlari. Mazkur ro‘yxatni yana uzooooq davom ettirishimiz mumkin: “*Elegant*”, “*Jasmina*”, “*Baver*”, “*Bagira*”, “*Masha i medved*”, “*Meri*”, “*Lavetta*”, “*Procab Buxara*”, “*Le Uat De Bukara*”...

Nomlar tarkibidagi so‘zlar “temir bolta” bo‘lgani barobarida “boltaning dastasi” o‘zimizniki ekanligi kishini tashvishlantiradi.

Buxorodagi joy, muassasa, do‘kon, maishiy xizmat uylari nomlari bilan bog‘liq bunday noxush holatlar, taassufki, respublikamizning barcha shahar va viloyatlarida uchraydi. Achinarlisi, shunday noxushliklarga aholining ziyoli qatlami allaqachon ko‘nikib bo‘ldi, ona tilimiz ildiziga bolta urayotgan bu nomlar hech birimizni ajablantirmaydi.... Nega?!

Aslida, bu bugungi kunda milliy tilimizga xiyonat-ku?! Kichikkina ko‘ringan mazkur noxushliklar yig‘ilib, bisyorgina muammolarni yuzaga keltiryapti. O‘zbek ziyolilarining bunday beparvoligi, “ilmi amal”sizligi zanjirbandlikdan qutilgan bo‘lsa-da, yana yigirma yillik zanjir qozig‘i atrofida aylanayotgan filni eslatmayaptimi?!

Savollar bisyor. Javobi esa...

Tadbirkorni ham qaysidir ma‘noda tushungandek bo‘lamiz: “tirikchiligi” uchun sarflangan mablag‘ uniki, do‘kon yoki maishiy xizmat uniki...

Shu o‘rinda ulug‘larimiz aytgan yana bir rivoyatni keltirmoqni joiz deb bildik:

“Bitta ko‘chada o‘t chiqib uylar deyarli yonib ketibdi. Shu ko‘chada kichikroq do‘kon ham bo‘lib, xabarni eshitgan do‘kon egasi g‘amga botib “tirikchiligi” tomon yuguribdi. Yo‘lda bir tanishi uchrab qolib, yugurgilab ketayotgan do‘kondorni to‘xtatibdi. Unga:

– Tashvishlanmang, mahalladagi bir ko‘chaning butun uylari yondi, ammo sizning uyingizga ham, do‘koningizga ham o‘t yetmadi, – debdi.

Xushxabarni eshitgan do‘kondor beixtiyor:

– Eh, Yaratganga shukur! Ming marta shukur!–deya bor ovozi bilan qichqiribdi irg‘ishlab...

Yuzaki qaraganda “do‘kondorning omadi kelibdi yoki do‘kondorni yaratganning o‘zi asrabdi”. Biroq mahallaning kuyib kul bo‘lgan xonadonlari uni tashvishga solmayapti, qo‘ni-qo‘shnilariga achinmayapti, u o‘zining uyi va do‘koni omon qolganidan shod... ”

Agarda bugun bizdagi “boyish” istagi faqat moddiyat bilan bog‘liq bo‘lsayu, tevarak-atrofdagilarning tashvishi bizni bezovta etmasa, qilayotgan ishimiz xalq, yurt, kelajak avlod ildiziga bolta ursa, bizning “uyi va do‘koni yong‘indan omon qolgan tadbirkor”dan nima farqimiz qoladi?! Gapning po‘st kallasi shu: ko‘pchiligimizning hojatimizni chiqarayotgan o‘sha do‘konlaru restoranlar, kafe-barlar, maishiy xizmat binolariyu to‘yxonalar<sup>2</sup>ning nomliiy nomlanishi ma‘naviyatimizga, ayniqsa, farzandlarimiz mafkurasiga salbiy ta‘sir o‘tkazyapti! Buni inkor eta olasizmi? Yo‘q, albatta.

Zero, do‘konmi, oshxonami, restoranmi yo boshqa maishiy muassasami, qat‘i nazar, ularning o‘zbekcha nomlarining o‘ziyoq tafakkuringizga o‘zi haqidagi axborotni jo‘natadi. Ona tilimizdagi nomlardan ko‘zingiz yashnaydi, qalbingiz surgaga to‘ladi.

Ko‘r-ko‘rona taqlidchilik, e‘tiborsizliklar oqibati haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishimiz zarur. Fikrimizcha, yuqorida sanab o‘tganlarimiz–ko‘r-ko‘rona taqlidchilik, e‘tiborsizliklar millatning mavjudligini belgilovchi mezon–milliy tilimizga, xalq ma‘naviyatiga bo‘lgan loqaydlikdan o‘zga narsa emas. Bugun asrlar davomida elimiz qadrlab kelgan ne‘matlarga e‘tiborsizlik qilishga haqsizmiz. Zero, shoir (Xurshid Davron) to‘g‘ri ta‘kidlaganidek:

O‘z tilini unutgan xalqning  
Bog‘larida o‘sgan gullarin  
Chirmab uxlar zaharli ilon.

<sup>1</sup> [https://www.norma.uz/raznoe/buharskaya\\_oblast55](https://www.norma.uz/raznoe/buharskaya_oblast55)

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси «Давлат тили ҳақида»ги Қонунининг 20-моддасида «Лавҳалар, эълонлар, нархномалар ва бошқа кўргазмалар ҳамда оғзаки ахборот матнлари давлат тилида расмийлаштирилади ва эълон қилинади ҳамда бошқа тилларда таржимаси берилиши мумкин» деб аниқ ёзиб қўйилган.

O‘z tilini unutgan xalqning  
Osmonida porlamas quyosh -  
Nur o‘rnida to‘kiladi tosh.  
O‘z tilini unutgan xalqning  
Uyqusida aslo orom yo‘q -  
Tegib turar kuragiga o‘q.  
O‘z tilini unutgan xalqning  
Mozorida ajdodlar qabri  
Uzra qo‘yar bolalar tikan.

*Yo‘ldosheva Dilorom Ne‘matovna – BuxDU dotsenti, p.f.nomzodi*  
*Yusupova Dildora Yunus qizi –BuxDU magistranti*